Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321306

ta´minlashning ustivor yo´nalishlari´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

ANGIOMPHALIA) УРУҒИ ҚУРУҚЛИК МОЛЛЮСКАЛАРИ МОСЛАШУВИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(17), 52-55.

2. Gaibnazarova, F., Ruzikulova, N., Safarova, N., Khakberdiyeva, K., & Musabekov, U. (2024). Conchological variation of widely common species of terrestrial mollusks of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 494, p. 01021). EDP Sciences.

3. Gaibnazarova, F., & Khakberdiyeva, K. (2024). MALACOPHAUNA OF THE GISSAR RESERVOIR AND GORGE ILONLI GISSAR RIDGE. Академические исследования в современной науке, 3(2), 97-102.

4. Hakberdieva, H. (2023). FISHERIES IN UZBEKISTAN AND MODERN METHODS IN THE FIELD. Science and innovation, 2(D3), 51-53.

5. Berdiqulov, L. I., & Haqberdiyeva, H. A. (2021). OPPORTUNITY TO TAKE AN ONLINE TEST USING THE GOOGLE APPLICATION. Экономика и социум, (5-1), 94-97.

6. Keshpiyev, E. A., Xakberdiyeva, H. A., & Berdiqulov, L. I. (2021). THE ROLE AND EFFICIENCY OF INNOVATIVE CHANGES IN EDUCATION. Экономика и социум, (6-1), 137-140.

7. Pardabaevna, G. F., & Khilola, K. (2024). Description of the Speciesbradybaena Plectotropis Living in the Vicinity of the Naryn River. Journal of Medical Genetics and Clinical Biology, 1(12), 71-76.

8. Abdusayidqizi, X. H. (2024). TOSHKENT SHAXRI (URBANIZATSIYA LANDSHAFTLARI) QURUQLIK MOLLYUSKALARINING EKOLOGIK-TAKSONOMIK TARKIBI VA BIOLOGIYASI MISOLIDA QURUQLIKDAGI MOLLYUSKALARNING NAMUNAVIY TURLARI POPULYATSIYALARINING TUZILISHINI O‘RGANISH. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(1), 41-44.

9. Gaibnazarova, F., & Xakberdiyeva, H. (2024). ТАБИИЙ ШАРОИТДА МИРЗАЧЎЛДА HYGRAMIIDAE ОИЛАСИДАН (LEUCOZONELLA, XEROPICTA, ANGIOMPHALIA) УРУҒИ ҚУРУҚЛИК МОЛЛЮСКАЛАРИ МОСЛАШУВИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(17), 52-

USTRUSHONA O‘LKASINING BUYUK IPAK YO‘LIDA TRANSMINTAQAVIY VA MADANIY A’LOQALARDA TUTGAN O‘RNI

Abduraimov Dilshod Sultanovich
Guliston davlat universiteti
Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix kafedrasi t.f.f.d (PhD)
dilshodabduraimov99@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ustrushonaning madaniy hamda siyosiyva savdo aloqalari va o‘zaro ta’siri hamda Buyuk Ipak yo‘lining gullab-yashnash cho‘qqisida rivojlanganligi va O‘rta Osiyodagi va boshqa mintaqalarning siyosiy va madaniy va savdo aloqalari ham muhim ahamiyat kasb etgani ko‘rsatilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Ustrushona, Xitoy, Sug‘diyona, Taraqqiyot, Buyuk Ipak yo‘li, Madaniyat, Siyosat, Madaniy aloqalar, Siyosiy aloqalar, Transmintaqa Transmintaqaviy aloqa.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Abduraimov Dilshod Sultanovich (2024). Ustrushona o‘lkasining Buyuk ipak yo‘lida transmintaqaviy va madaniy a’loqalarda tutgan o‘rni. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321306

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Kirish. Bugungi rivojlangan dunyodagi ko‘plab davlatlarning olimlari o‘z davlatning tarixini, uning jahon madaniyatiga daxldorligi, qadimgi va o‘rta asrlar davrida, yangi va eng yangi davrlarda boshqa mamlakatlar bilan aloqalarini, madaniy integratsiyani, ilm-fan, texnika va texnologiyalar sohalaridagi yutuqlar bilan almashish jarayonlarini, ma’naviy madaniyatning, diniy e’tiqodlarning, urf-odat va marosimlarning bir-biriga singishini ilmiy tadqiq qilishni dolzarb hisoblashmoqda. Mazkur aloqalar va jarayonlar tarkibida Markaziy Osiyo mintaqasi xam muhim rol o‘ynaydi. Qadimdan, aniqrog‘i, so‘nggi antik davrdan boshlab Markaziy Osiyo tovarlari, san’at va me’morchilik yodgorliklari Rimdan to Xitoygacha bo‘lgan ulkan hududda uchraydi. Tarixiy va geografik solnomalarda, Xitoy va arab-fors asarlarida savdo yo‘llarining asosiy trassalarining ta’rifi olimlar tomonidan batafsil o‘rganib chiqilmoqda. Ammo, ayni vaqtda, Buyuk Ipak yo‘lining ayrim tarmoqlari, ular bo‘ylab joylashgan mamlakatlar, shaharlar va boshqa manzillarning paydo bo‘lishi, Buyuk Ipak yo‘lidagi ahamiyati, savdo-iqtisodiy va madaniy ta’sirining mexanizmi etarlicha o‘rganilmagan.

Eng yangi tadqiqotlar materiallaridan ko‘rinib turibdiki, qadimda va ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyodagi savdo-sotiq va ayirboshlashning ustuvor yo‘nalishi Xitoy hisoblangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqillik yillarida Ustrushona o‘tmish tarixi, Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida tutgan o‘rni, o‘zaro madaniy aloqalari, moddiy madaniyatini o‘rganib, ommalashtirishda Y.F.Buryakov, A.A.Gritsina, M.Pardayevlarning arxeologik izlanishlari ancha keng va chuqurligi bilan ajralib turadi. Y.F.Buryakov Sirdaryobo‘yi shaharlarini o‘rganib, Choch va Ustrushona iqtisodiy va etnomadaniy aloqalariga to‘xtalib o‘tgan [1:69-82-b]. Ustrushonaning qadimiy boshqaruv markazlari L.M.Sverchkov boshchiligida arxeologik ekspeditsiyalar orqali birmuncha o‘rganilgan [2:12-b]. A.A.Gritsinaning o‘nlab tadqiqotlari vohadagi davlatchilik tarixiga qaratilgan [3:36-b]. U rahbarlik qilgan arxeologik guruh Jizzax viloyatidagi o‘nlab yirik yodgorliklarda qazishlar olib borgan [4:51-b].

Taniqli tilshunos V.P.Yaylenko, ayrim lingvistik materiallarga asoslanib, Sug‘dning Baqtriya va Xitoy bilan er.av. IV-III aslardagi ilk savdo aloqalari mavjud bo‘lgan, deb taxmin qiladi [5:24-25-b]. Bu haqda arxeologik materiallar ham dalolat beradi. Masalan, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, Xitoy saroyining Xitoydan g‘arbda joylashgan davlatlarga bo‘lgan qiziqishi er.av. II-I asrlarda Rim, Parfiya, Kushonlar saltanati va Xan Xitoy kabi to‘rtta qadimgi imperiyaning mavqsi tomonidan ko‘zg‘atilgan edi.

O‘sha davrdagi iqtisodiy aloqalarning keng miqyosda bo‘lganligi haqida Farg‘ona vodiysida va hozirgi Tojikiston Respublikasining Sug‘d viloyatida “U-shu” tipidagi rim va Xitoy tangalarining topilmalari dalolat beradi. 1947 yilda Shirinsoy mozorqo‘rg‘onlarida olib borilgan qazishmalar natijasida tasodifiy topilmalar orasida Xitoy tangalari, bronza ko‘zgular va Xan davriga oid Xitoy yozuvi o‘yilgan mis qo‘mg‘on topilgan edi. “U-shu” tipidagi Xitoy tangalari Kurkatdagi 9-dahmakda ham topilgan hamda o‘xshash tanga Shirinsoy mozorqo‘rg‘onidagi 1-sonli qabrda 1943 yilda V.F.Gaydukevich tomonidan ham topilgan edi. Tadqiqotchi ushbu topilmani eramizning I asri dastlabki o‘n yilliklari bilan sanalandi. Farg‘ona vodiysida esa “U-shu” tipidagi 15 ta tanga topilganligi ma’lum. Mazkur nusxadagi tangalardan biri 1982 yilda Isfara tumanidagi Chorku qishlog‘ining Langari Xojiyon mozorqo‘rg‘onidan topilgan edi. Avval qayd qilganimizdek, sug‘dliklar er.av. III asrdayoq Buyuk Ipak yo‘lida, xususan, Ettisuvda, Jung‘oriyada, Sharqiy Turkistonda hamda Chan’an, Dunxuan, Turfaon, Xotan shaharlarida va Sharqiy Turkistondagi boshqa shaharlarda o‘z savdo-dehqonchilik koloniyalariga asos soladilar. XX asrning 80- yillarida yapon sharqshunosi Yutaka Yoshida Xitoydagi Urumchi shahrida sug‘d tilida bitilgan yuridik hujjatni topdi. Mazkur

hujjat Chinanchkand yoki Chan’an shahrida–Xitoy imperiyasining sharqiy poytaxtida tuzilgan edi. Bu shaharda faqat sug‘d savdogarlari yashardilar. Hujjatda qulni sotib olish haqida gap boradi va sotib oluvchi Xitoylik bo‘lgan deyiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni tadqiq etish jarayonida qiyoslash, tizimli tahlil, tavsifiylik, tarixiylik, tarixiy-qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Qadimdan tarixiy munosabatlar tufayli Buyuk Ipak yo‘lida yaaratilgan shart-sharoit hamda iqtisodiy yo‘lakning paydo bo‘lishi shahari madaniy va iqtisodiy hunarmandchilik sohalaridagi integratsiyasining quroli bo‘lib qoldi. Mazkur noyob iqtisodiy yo‘lakning yaratilishi va faoliyat yuritishida Ustrushona va Sug‘d aholisi katta rol o‘ynagan. Ayniqsa, sug‘dliklar Buyuk Ipak yo‘lida katta o‘rin tutgan. Katta Sug‘d, jumladan, Ustrushona va Xo‘jand shahri Sharq va G‘arbni birlashtiruvchi muhim bo‘g‘in hisoblangan. Yozma manbalardagi tarixiy ma’lumotlar va arxeologik topilmalar mazkur xalqaro trassadagi madaniy iqtisodiy va madaniy funktsiyalarni ta’minlayotgan shaharlar va qishloqlar haqida dalolat beradi. Biroq, V.A.Livshitsning ta’kidlaganidek, sug‘dliklarning Xitoy liklar bilan savdo kontaktlaridan dalolat beruvchi to‘g‘ridan to‘g‘ri yozma dalolatlar yo‘q. Shuningdek, ustrushonaliklarning ham Xitoy bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalari haqida yozma ma’lumotlar uchramaydi. Ustrushona, avval qayd qilganimizdek, turli davrlarda Sug‘d, Baqtriya, Turk hoqonligi, Eftalitlar davlati tarkibiga kirgan. Ayniqsa, Samarqand Sug‘di va Baqtriya tarkibida bo‘lgan Ustrushona ilk o‘rta asrlarda alohida mulk va keyin davlat sifatida ajralib chiqadi. Demak, Ustrushona ham Sug‘dning Xitoy bilan madaniy va iqtisodiy aloqalarida faol qatnashib kelgan, deyish mumkin. Chunki Sug‘ddan Farg‘ona va Xitoyga olib boradigan yo‘llar Ustrushona hududi orqali o‘tgan.

Sug‘d savdogarlari amalda xalqaro karvon savdosining katta qismini o‘z qo‘llarida jamlaganlar. Ayni vaqtda sug‘dliklar yangi madaniy yutuqlarni tashuvchilari bo‘lishdi, etnik tatarlar va turkiylar orasida savdo va shahar hayoti ko‘nikmalarini tarqalishiga ko‘maklashdilar. 630 yilda Suyob daryosi vodiysidagi bir nechta sug‘d shaharlariga mashhur Xitoy sayohatchisi Syuan Tszan tashrif buyurgan edi. U o‘z kundaligida quyidagilarni yozib qoldirdi: “shaffof ko‘ldan (Issiq ko‘l) shimoli-g‘arbga 500 lidan ko‘proq yurib, Ustrushona hududi orqali Suy-e, ya’ni hozirgi Suyob shahriga etib keldik. Bu shahar doirasida 6-7 li. Unda aralash tarzda turli mamlakatlardagi savdogarlar va xu (sug‘dliklar) yashaydilar. Odamlar to‘qilgan va jun kiyimlarini kiyishadi. Suy-edan g‘arbda bir necha o‘nlikta alohida turgan shaharlar joylashgan va har birining o‘z oqsoqoli bor”. Syuan Tszanning yozishicha, sug‘dliklar, savdo-sotiq bilan bir qatorda, dehqonchilik bilan ham faol shug‘ullanganlar.

I-II asrlarda G‘arb-Sharq xalqaro savdosiga Rim imperiyasi ham qo‘shiladi. O‘rta Osiyodagi muzeylarda rim tangalari to‘plamlari uchraydi. Taniqli numizmat olim E.V.Zeymal yozganidek, O‘rta Osiyodagi numizmatik bozorlarda, Rim imperatorlari Vespasian (69-79 yy.) va Adrian (117-138 yy.) zarb qildirgan tangalar bilan bir qatorda, Domitsian (81-96 yy.) va Troyan (98-117 yy.) tangalari ham ko‘p uchraydi. O‘lkashunos A.M.Brodskiy XIX asrning oxirida Issiq ko‘l qirg‘oqlaridagi Xitoyga olib boradigan karvon yo‘lidan Rim tangalarining katta bo‘lmagan xazinasini topdi. Yana bitta yaxshi hujjatlangan rim tangasi – Neron sestertsiysi O‘zbekistondan, Surxondaryo viloyatidagi Angor tumani Xayrobodtepa shahristonidan 1954 yilda topildi [6:125-127-b].

Shuningdek, bizgacha XX asr 20-yillarida Tojikistondagi G‘onchi tumani, Mujum qishlog‘ida topilgan rim denariylari xazinasi etib keldi. Bu xazina mahalliy shifokor A.A.Tarin tomonidan topilgan edi. Bu xazinada 300 taga yaqin kumush rim tangalari bor edi. Bizning kunimizgacha faqat ularning 19 ta nusxasi saqlanib qolgan, xolos. Bu tangalar Davlat Ermitajining (Sankt-Peterburg shahri) Sharq bo‘limida saqlanmoqda. Mujumdagi topilmalar II asrga oid deb topildi.

Keyinchalik, bu tashabbus Sug‘d savdogarlariga o‘tadi. Ko‘plab savdo markazlariga sug‘d savdogarlari o‘rnashib olganlar hamda bu markazlardagi savdo Shimoliy Kavkaz hududlari orqali ham amalga oshiriladi. Sug‘ddan Vizantiyaga ipak savdosi asosan VII-VIII asrlarda amalga oshirilgan. Vizantiyaga olib boradigan yo‘lda ipak matolari qisman Ustrushona hududiga Dunxudan, Tufon, Ko‘cha, Qashg‘ar,Choch, Farg‘ona, Xo‘jan, orqali olib kelingan va Bundon-Samarqand, Buxorodan tortib Vizantiyaga qadar yetkazib berilgan. Ipakdan tashqari oltin qo‘ymalar ham yo‘l-yo‘laqay sotilib, ulardan mahalliy zargarlar zeb-ziynat buyumlarini yasashgan. Narshaxiyning yozishicha, zandanachi ipak matolari Suriya, Misr va Rimga olib ketilgan. Zandanachi navidagi gazlamalar Evropadagi bir qator shaharlarda ham topilgan.

Sharqiy Turkistondagi boshqa sug‘d shahri Turfon hisoblangan. Bu shahar aholisi shu qadar to‘q yashaganlarki, nafaqat Tan imperiyasi aholisini, balki Sharqiy Turkiston ko‘chmanchilarini ham don va matolar bilan ta’minlashgan. “Tan shu” Xitoy solnomasidagi axborotga ko‘ra, Turfonda ikkita bozor bo‘lgan: bittasi shaharning g‘arbiy darvozasi yonida, ikkinchisi sharqiy darvozasi yonida. Dasht bilan savdoda jun matolari, hunarmandchilik va dehqonchilikning turli mahsulotlari muhim o‘rin tutgan. Bu mahsulotlar o‘rniga ko‘chmanchi turkiy qabilalardan otlar va xom-ashyo, avvalambor, hunarmandchilik ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan jun, charm, teri olingan. Qirg‘izlarning “Manas” dostonida 30 dan ortiq gazlamalarning nomlari keltirilgan bo‘lib, ulardan 12 tasi har xil ipak gazlamalaridan iborat. Gazlamalardan tashqari mazkur dostonda Buyuk Ipak yo‘li orqali keltiriladigan har xil qimmatbaho toshlar haqida ma’lumotlar ham keltirilgan. Yana “Manas”da oltin turkiy-mo‘g‘ul, fors-tojik va Xitoy tillarida tilga olinadi. Masalan, “shanshuur” so‘zi “oltin yombi”ni anglatadi. Kumush yombi esa “jambi,” deb ataladi. Bu yombilar pul sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, “Manas”da Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylaridagi shaharlar va qishloqlar tilgan olingan bo‘lib, bular qatorida Ok-Beshim, Olay, oltoy, Anjiyan, Arpa, Artish-Baliq (Shimoliy Afg‘onistondagi hozirgi Balx shahri), Badaxshon, Barko‘l, Bariskan, Gubiy-Shamu (Gobi sahrosi), Darxon, Jarken (Yarkend), Ili, Qashkar, Qoratengin, Qora-Shaar, Maral-Boshi, Lop (Lobnor ko‘li), Orxon, Marg‘ilon, Samarqand, Talas, Toshkent, Tibet, Chatir Kool, Chuy, Turfon, Farg‘ona, Edil Volga daryosi), Ertish (Irtish daryosi) va boshqalar bor [3:75-b]. “Manas” dostonida bir qator pul birliklari Xitoycha“ shanshuur” “jambi” nomi bilan keltirilgan [7:84-85-b].

Buyuk Ipak yo‘lining Farg‘ona va Choch orqali o‘tgan shimoliy va janubiy shaxobchalari Ustrushonada xududidagi Ilon o‘tdi darasi darvozada birlashgan. M.Pardaevning fikricha, Ustrushonadagi Feknan ilk o‘rta asrlar rustoqi va bosh shahar Jizzax mazkur kontakt zonasidagi tovar ayirboshlash va pullik savdoning retranslyatorlaridan biri hisoblangan [8:90-b]. Jizzaxda qadim zamonlardan buyon ko‘psonli rabot va karvonsaroylar joylashgan. Ulardan biri Xudaysar nomi bilan ma’lum bo‘lib, ayrim manbalarda uni valiahd Haydar al-Afshin tomonidan qurilganni aytiladi.

Xulosa va takliflar. Bu voxa, quruq, va o‘rtacha o‘lka bo‘lib, uning tarixiy o‘rni va madaniy aloqalari muhimdir. Ustrushona vohasi quyidagi muhim nuqtalarni o‘z ichiga oladi:

1. **Transmintaqaviy aloqalar:** Ustrushona, qadimdan beri transmintaqaviy yo‘nalishlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan joydir. Ustrushona o‘lkasining geologik xususiyatlari, suv resurslari, va tabiiy bog‘lanishlari bu aloqalarni shakllantirgan.

2. **Madaniy aloqalar:** Ustrushona, o‘rtacha o‘lkalik bo‘lsa-da, uning madaniy aloqalari zamonaviy va tarixiy madaniyatlar orasida o‘ziga xosdir. Bu yerda qadimiy qo‘riqchi va qurama san’ati, o‘ziga xos madaniylik va adabiyotlar o‘rnini egallagan.

3. **Ijtimoiy aloqalar:** Ustrushona, nomadik va o‘rtacha o‘lkalik xalqlar orasida ijtimoiy aloqalarni o‘z ichiga olgan joydir. Bu yerda o‘lkada yashovchi xalqlar, ularning madaniy va ijtimoiy almashinuvi, va o‘zaro ta’sir o‘rin olgan.

Ustrushona o‘lkasining transmintaqaviy, madaniy, va ijtimoiy aloqalari, uning tarixiy o‘rni va tabiiy xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Bu o‘lkada yashovchi xalqlar o‘rtasidagi madaniy almashinuvlar, tarixiy yodgorliklar, va ijtimoiy o‘zaroq munosabatlar o‘ziga xosdir. Ustrushona, O‘zbekistonning unikal o‘lkalari orasida o‘ziga xos joyga ega bo‘lib, uning tarixiy va tabiiy bog‘lanishlari o‘zini ifodalaydi.

Fayodalangan adabiyotlar.

1. Буряков Ю.Ф. Историческая топография Ташкентского оазиса. – Ташкент, 1975; Буряков Ю.Ф. Палеоэкологические и этнические процессы в контактных зонах Средней Азии в древности и средневековье // IJAS. – Seoul – Tashkent, 2003. – Vol. 8.
2. Сверчков Л.М. Замок Мык и его округа Древний Заамин. – Ташкент, 1994.
3. Грицина А. А. Усрушанские были. – Ташкент, 2000.
4. Грицина А.А., Содиқов М. Эски Ховос ва унга қўшни худудлар қадим ва ўрта асрларда. – Тошкент, 2010.
5. Яйленко В.П. Греки, Бактрия и шёлк. - Формирование и развитие трасс Великого шёлкового пути в Центральной Азии. – Ташкент, 1990.
6. Жуков В.Д. Находка сестерция Нерона в кушанском слое в Южном Узбекистане // Эпиграфия Востока. – Вып.ХГГГ. -М.1960 – С.125-127.
7. Взаимодействие кочевых и оседлых культур на Великом шёлковом пути. – Алма-Ата, 1991, – С.10.
8. Караев О. Северная дорога Великого шёлкового пути //Взаимодействие кочевых и оседлых культур. Указ.раб. – С.75.
9. Молдобаев И.Б. Великий шелковый путь в культуре кыргызского народа.: Указ. сборник. – С.84-85.
10. Пардаев М. Джизак - торговый пункт на Великом шелковом пути // Там же. – С.90.

ШОЛИЧИЛИКДА КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Облоқулов Абдурауф Олимжон ўғли
ISFT институти, "Мененжмент" кафедраси в.б. доценти, и.ф.ф.д

happy_bear25@mail.ru

Xudoyberdiyeva Gulxayo Shavkat qizi
ISFT институти

Тадқиқотлар кўрсатишича, республикамизда шоли етиштириш ва қайта ишлаш жараёнлари асосан маҳаллий анъанавий усулларга асосланган бўлиб, йиллар давомида шаклланган тажрибаларга кўпроқ таянилган. Лекин, бу жара-ёнда серҳосил навларни яратиш, сув тежаш технологияларни қўллаш, соҳага илм-фан ютуқларини тадбиқ қилиш орқали юқори самарадорликка эришиш